QMMB: 10/25/3467-5/0783-son
28.08.2025-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3467-5
2025 - yil 26 - Avgust

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

## Davlat xizmatlari yagona reyestriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi PF–90-son “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-martdagi 158-son “Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2025-yil 10-iyuldagi 427-son “Intellektual mulk sohasidagi ayrim davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda 2025-yil 13-avgustdagi 512-son “Madaniy meros sohasiga oid ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2023-yil 27-oktabrdagi 14-mh-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3467, 2023-yil 27-oktabr) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.10.2023-y., 10/23/3467/0806-son) bilan tasdiqlangan Davlat xizmatlari yagona reyestriga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

| | |
|---|---|
| Vazir<br>2025-yil 26-avgust<br>21-mh-son | TASHKULOV AKBAR DJURABAYEVICH |

Oʻzbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 26-avgustdagi
21-mh-son buyrugʻiga
ILOVA

**Davlat xizmatlari yagona reyestriga kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar**

1. 002-bobning 2, 5 va 7-pozitsiyalarining “Davlat xizmati koʻrsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “An’anaviy” degan soʻz “Elektron” degan soʻz bilan almashtirilsin.

2. 004-bob quyidagi mazmundagi $19^{14}$ – $19^{18}$-pozitsiyalar bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $19^{14}$. | 00422 | Avtotransport vositalarini nogironligi boʻlgan shaxslar ehtiyojlariga moslashtirish xarajatlarini qoplash | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiyaning Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Xarajatlarni qoplash |
| $19^{15}$. | 00423 | I va (yoki) II guruh nogironligi boʻlgan shaxslarning bandligini ta’minlagan yoki bandligini ta’minlashga koʻmaklashgan tadbirkorlik subyektlari yoki xususiy bandlik tashkilotlariga | Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | Elektron | Bepul | Subsidiya |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bandlikka ko‘maklashish subsidiyasini ajratish | | | | | |
| 19[16]. | 00424 | Tadbirkorlik subyektlari tomonidan I va (yoki) II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga surdotarjimon, psixolog yoki hamrohlik xizmatlarini yo‘lga qo‘yish hamda ularga ish o‘rinlariga moslashtirish subsidiyasini ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | Elektron | Bepul | Subsidiya |
| 19[17]. | 00425 | Ishlash istagidagi nogironligi bo‘lgan shaxslarni “Nogironligi bo‘lgan shaxslar bandligiga ko‘maklashish elektron reyestri” axborot moduliga kiritish | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Reyestrga kiritish |
| 19[18]. | 00426 | Kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan rasmiy band bo‘lgan yolg‘iz ota va onalarga farzandi uchun maktabgacha ta’lim xizmatidan foydalanish uchun moddiy yordam to‘lash | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Moddiy yordam |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |

”.

3. 012-bob quyidagi mazmundagi $82^{3}$ – $82^{8}$-pozitsiyalar bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $82^{3}$. | 0124 | Davlat xaridlari elektron tizimi operatori faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Ruxsatnoma |
| $82^{4}$. | 0125 | Qishloq xo‘jaligi subyektlariga o‘z mablag‘lari hamda tijorat kreditlari hisobidan paxta xomashyosini yetishtirgan holda birjada sotganda rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraq-faktura qiymatining bir qismini qoplab berish | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Subsidiya |
| $82^{5}$. | 0126 | Paxta xomashyosini yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni hosil yili yakuniga qadar qaytargan qishloq xo‘jaligi subyektlariga ushbu kredit bo‘yicha to‘langan foiz | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Subsidiya |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | to'lovlarining bir qismini subsidiya sifatida qaytarish | | | | | |
| $82^{6}$. | 0127 | Paxta-to'qimachilik klasterlari hamda ip-kalava ishlab chiqarish zanjiriga ega to'qimachilik korxonalariga paxta xomashyosini yetishtirish va xarid qilish uchun ajratilgan tijorat kreditlari bo'yicha foiz to'lovlarining bir qismini qoplab berish | O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Subsidiya |
| $82^{7}$. | 0128 | Paxta-to'qimachilik klasterlari hamda ip-kalava ishlab chiqarish zanjiriga ega to'qimachilik korxonalariga o'z mablag'lari hisobidan xarid qilingan paxta xomashyosi qiymatining bir qismini qoplab berish | O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Subsidiya |
| $82^{8}$. | 0129 | Paxta xomashyosi yetishtirish va yig'im-terimini moliyalashtirish | O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Yuridik shaxs | An'anaviy | Bepul | Foiz to'lovlarini |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | uchun ajratilgan kreditlar bo‘yicha foiz to‘lovlarining bir qismini qoplab berish | | | | | qoplab berish |

”.

4. 013-bobda:

84-pozitsiyaning “Davlat xizmati ko‘rsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “An’anaviy va elektron shaklda” degan so‘zlar “Elektron” degan so‘z bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi $93^1$ – $93^3$-pozitsiyalar bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $93^1$. | 01312 | Nogironlik pensiyasini kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lganda har ikki yilda qayta hisoblash | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi | Jismoniy shaxs | Elektron | Bepul | Xabarnoma |
| $93^2$. | 01313 | Ko‘rish qobiliyati bo‘yicha I guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga kompensatsiya pul to‘lovini tayinlash | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi | Jismoniy shaxs | Elektron | Bepul | Xabarnoma |
| $93^3$. | 01314 | Yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o‘tagan | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi | Jismoniy shaxs | Elektron | Bepul | Xabarnoma |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | shaxslarga kompensatsiya pul to‘lovlarini tayinlash | Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi | | | | |

”.

5. 014-bob quyidagi mazmundagi $103^4$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $103^4$. | 01413 | Tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo‘llash bo‘yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, “Toshkent-AERO” ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Dastlabki qaror |

”.

6. 018-bob quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | |
|---|---|
| 018 | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 132. | 0181 | Shaxslarni ishsiz deb e’tirof etish va ularga ishsizlik nafaqasini tayinlash | Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari | Jismoniy shaxs | Elektron | Bepul | Ma’lumotnoma |
| 133. | 0182 | Haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish | Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy | Bepul | Shartnoma |
| 134. | 0183 | Xususiy bandlik agentliklari reyestriga kiritish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Xabar |
| 135. | 0184 | Fuqarolarni ishga joylashtirishda ko‘maklashish | Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari | Jismoniy shaxs | An’anaviy | Bepul | Yo‘llanma |
| 136. | 0185 | Tadbirkorlik subyektlariga har bir kasanachining dastlabki uch oy davomidagi kasanachilik faoliyati uchun bir oylik o‘rtacha daromadi miqdorida to‘lov to‘lash uchun subsidiya ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 137. | 0186 | “Usta-shogird” an’analari asosida yoshlarga hunar o‘rgatayotgan hunarmandlarga shogirdlar tayyorlash, zarur xomashyo sotib olish va shogirdlarni ish haqi bilan ta’minlash xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 138. | 0187 | Ustalarga o‘zlarining internet saytlarini yaratish, mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama qilish xarajatlarini qoplash uchun subsidiya ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 139. | 0188 | O‘zini o‘zi band qilmoqchi bo‘lgan ishsiz fuqarolarni yoki kambag‘al oilalar a’zolarini kasanachi sifatida ishga olgan tadbirkorlik subyektlariga ularning aylanma mablag‘larini | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Yuridik shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Ssuda |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | to‘ldirish uchun har bir jalb qilingan kasanachi uchun ssuda ajratish | | | | | |
| 140. | 0189 | Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya berish | Tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 141. | 01810 | Nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga subsidiya berish | Tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 142. | 01811 | Alohida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy | Bepul | Taqdimnoma |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 143. | 01812 | Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Pullik | Tasdiqnoma |
| 144. | 01813 | Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassislarning malaka imtihonini o‘tkazish va malaka sertifikatini berish | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Sertifikat |
| 145. | 01814 | Chet ellik fuqarolarni jalb etishning maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi xulosani berish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda hududiy bo‘linmalari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Xulosa |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 146. | 01815 | Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi talablariga muvofiqlik to‘g‘risida xulosa berish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda uning hududiy boshqarmalari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Xulosa |
| 147. | 01816 | Qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazlariga o‘qishga kirish uchun yo‘llanma berish | Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlari | Jismoniy shaxs | An’anaviy | Bepul | Yo‘llanma |
| 148. | 01817 | O‘zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | Elektron | Pullik | Tasdiqnoma |
| 149. | 01818 | Yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish, urug‘liklar, ko‘chatlar va sug‘orish vositalari xarid qilish uchun subsidiya ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 150. | 01819 | Qishloq xo‘jaligi kooperativlari ustav fondiga ulush sifatida | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron | Bepul | Subsidiya |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | kiritish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha subsidiya ajratish | bandlik vazirligi | | shaklda | | |
| 151. | 01820 | Ishsizlarga olingan bino va inshootning ijara to‘lovini to‘lash uchun subsidiya ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 152. | 01821 | Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga ular tomonidan tadbirkorlik, me’morchilik, hunarmandchilik kabi yo‘nalishlardagi aniq loyihalar amalga oshirilishi uchun subsidiya ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |
| 153. | 01822 | Kambag‘al oila a’zolariga o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalarni xarid qilishga ssuda ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Ssuda |
| 154. | 01823 | Kambag‘al oilalarga dehqonchilik va bog‘dorchilik | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron | Bepul | Ssuda |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | tashkil qilish uchun dehqon xo‘jaliklariga suv quduqlarini burg‘ilash, nasos agregatlarini sotib olish, tomchilatib sug‘orish tizimini o‘rnatish va elektr tarmoqlarini tortish uchun ssuda ajratish | bandlik vazirligi | | shaklda | | |
| 155. | 01824 | O‘z tajribasini 10 tagacha kambag‘al oilalarga o‘rgatgan va ularga doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishiga ko‘maklashgan tadbirkorlik subyektlariga har bir kambag‘al oila uchun grant ajratish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Grant |
| $155^{1}$. | 01825 | Suv ta’minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ulash va ishga tushirish | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | Elektron | Bepul | Subsidiya |

”.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bilan bog‘liq xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish | | | | | |

7. 019-bobning 156-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| “156. | 0191 | Xususiy bandlik agentliklarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ish qidirayotgan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha faoliyati uchun litsenziya | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi | Yuridik shaxs | Elektron | Pullik | Litsenziya”. |

8. 021-bob quyidagi mazmundagi 179[1]-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| “179[1]. | 02114 | Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun tayyorlangan o‘quv adabiyotlarini ekspertizadan o‘tkazish | O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Ekspertiza ma’lumotnomasi”. |

9. 025-bobda:

200 va 201-pozitsiyalarning “Davlat xizmati ko‘rsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “Elektron” degan so‘z “An’anaviy va elektron shaklda” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi $200^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $200^1$. | $0254^1$ | O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda ta’lim olgan farzandlarini davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish | Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Ma’lumotnoma |

”.

10. 028-bob quyidagi mazmundagi $218^1$ va $218^2$-pozitsiyalar bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $218^1$. | $0281^1$ | Farmatsevtika faoliyati uchun litsenziya | O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Pullik | Litsenziya |
| $218^2$. | $0281^2$ | Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faoliyati uchun litsenziya | O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Pullik | Litsenziya |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | ”. |

11. 030-bobdan 243 va 244-pozitsiyalar chiqarib tashlansin.

12. 033-bobda:

$313^2$-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| “ $313^2$. | 03353 | Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va bolalarga himoya orderini berish | Ichki ishlar organlarining tayanch punkti profilaktika (katta) inspektori, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limlari xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektori | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Order ”; |

quyidagi mazmundagi $313^3$ – $313^8$-pozitsiyalar bilan to‘ldirilsin:

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| “ $313^3$. | 03354 | Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga bir martalik nafaqa tayinlash va to‘lash | Tuman (shahar) probatsiya bo‘linmalari | Jismoniy shaxs | An’anaviy | Bepul | Nafaqa to‘lash |
| $313^4$. | 03355 | Fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash | Ichki ishlar organlarining patrul-post xizmati bo‘linmalari | Yuridik shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Shartnoma |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | va jamoat xavfsizligini ta'minlash | | | | | |
| $313^{5}$. | 03356 | Qo'riqlash xizmatini ko'rsatish | O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti | Jismoniy va yuridik shaxslar | An'anaviy va elektron shaklda | Pullik | Shartnoma |
| $313^{6}$. | 03357 | Xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarini qo'riqlovga olish | O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti | Yuridik shaxs | An'anaviy | Pullik | Shartnoma |
| $313^{7}$. | 03358 | Qo'riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma | O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti | Yuridik shaxs | Elektron | Pullik | Tasdiqnoma |
| $313^{8}$. | 03359 | O'zbekiston Respublikasining alohida muhim va toifalangan obyektlarida qo'riqlashning texnik vositalarini loyihalashtirish, montaj qilish, | O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Qo'riqlash departamenti | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Ruxsatnoma |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | sozlash, ta’mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajarish uchun ruxsatnoma | | | | | |

”.

13. 034-bob quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 034 | | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti | | | | | |
| 314. | 0341 | Malakani baholash markazlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti | Yuridik shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Guvohnoma |

”.

14. 037-bob quyidagi mazmundagi $352^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 352[1]. | 03716[1] | Advokatlarni Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar reyestriga kiritish | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari | Jismoniy shaxs | Elektron | Bepul | Shartnoma |

”.

15. 039-bobda:

393 va 394-pozitsiyalarning “Davlat xizmati ko‘rsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “An’anaviy va elektron shaklda” degan so‘zlar “Elektron” degan so‘z bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi 397[2]-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 397[2]. | 03912 | Intellektual mulk obyektlariga oid shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish | O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | Elektron | Bepul | Xabarnoma |

”.

16. 043-bobning 437, 440 – 442 hamda 444 – 446-pozitsiyalarining “Davlat xizmati ko‘rsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustuni “An’anaviy” degan so‘zdan keyin “va elektron shaklda” degan so‘zlar bilan to‘ldirilsin.

17. 048-bobda:

470-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 470. | 0481 | Moddiy madaniy meros obyektini Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastriga kiritish va undan chiqarish | O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va uning hududiy boshqarmalari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Pullik | Xulosa |

”;

471-pozitsiya chiqarib tashlansin;

476-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 476. | 0487 | Arxeologiya ashyosi Arxeologiya ashyolari davlat katalogiga kiritilgani yoki kiritilmagani haqida ma’lumot berish | O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va uning hududiy boshqarmalari | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Ma’lumot |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | |

”;

493-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 493. | 04822 | Milliy muzey fondining Davlat katalogida muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarining ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma berish | O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi va uning hududiy boshqarmalari | Jismoniy shaxs | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Guvohnoma |

”.

18. 049-bobda:

494-pozitsiyaning “Davlat xizmatini ko‘rsatuvchi vakolatli organning nomi” ustunidagi “Yoshlar siyosati va sport” degan so‘zlar “Sport” degan so‘z bilan almashtirilsin;

497-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 497. | 0494 | Jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarining trener-o‘qituvchilari va yo‘riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish | O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi | Jismoniy shaxs | Elektron | Pullik | Malaka toifasi |

”;

499-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 499. | 0496 | Sport hakamlariga malaka toifalarini berish | O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi | Jismoniy shaxs | Elektron | Pullik | Malaka toifasi |

”;

quyidagi mazmundagi $500^1$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 500[1]. | 0498 | Sport federatsiyalari (uyushmalari) reyestrini yuritish | O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi | Yuridik shaxs | An’anaviy | Bepul | Xabarnoma |

”.

19. 055-bobning 567-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 567. | 0555 | Elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish markazlarini akkreditatsiya qilish va qayta akkreditatsiya qilish | O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Guvohnoma |

”.

20. 057-bobdan 584-pozitsiya chiqarib tashlansin.

21. 062-bobning 659-pozitsiyasining “Davlat xizmatining nomi” ustunidagi “ro‘yxatdan o‘tkazish” degan so‘zlar “davlat reyestrida hisobga olish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

22. 063-bobda:

nomidagi “Energetika vazirligi” degan soʻzlar “Vazirlar Mahkamasi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

663 – 673-pozitsiyalarning “Davlat xizmatini koʻrsatuvchi vakolatli organning nomi” ustunidagi “Energetika vazirligi” degan soʻzlar “Vazirlar Mahkamasi” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

23. 066-bobning 680-pozitsiyasining “Davlat xizmati koʻrsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “An’anaviy” degan soʻz “Elektron” degan soʻz bilan almashtirilsin.

24. 067-bobning 686-pozitsiyasining “Davlat xizmati koʻrsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “An’anaviy va elektron shaklda” degan soʻzlar “Elektron” degan soʻz bilan almashtirilsin.

25. 068-bobda:

697 va 698-pozitsiyalarning “Davlat xizmati koʻrsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “An’anaviy va elektron shaklda” degan soʻzlar “Elektron” degan soʻz bilan almashtirilsin;

699-pozitsiyaning “Davlat xizmati koʻrsatish shakli (an’anaviy va elektron)” hamda “Toʻlov turi” ustunlaridagi “An’anaviy” hamda “Pullik” degan soʻzlar tegishli ravishda “Elektron” hamda “Bepul” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

26. 069-bob quyidagi mazmundagi $719^1$-pozitsiya bilan toʻldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $719^1$. | 06913 | Oʻzbekiston Respublikasi hududida import qilingan qishloq xoʻjaligi texnikalarini sotish boʻyicha xorijiy ishlab chiqaruvchi bilan tegishli dilerlik kelishuviga ega boʻlgan yuridik | Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi | Yuridik shaxs | Elektron | Bepul | Reyestrga kiritish |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | shaxsni O‘zbekiston Respublikasi hududida yangi qishloq xo‘jaligi texnikalarini chetdan import qilgan holda sotish bilan shug‘ullanuvchi rasmiy dilerlar reyestriga kiritish | | | | | |

”.

27. 070-bob quyidagi mazmundagi $734^{13}$-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| $734^{13}$. | 07028 | “In-vitro” sharoitida ko‘paytirilgan payvandtagli meva va tok ko‘chatlarini xarid qilish xarajatlarining bir qismini qoplash | O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi | Jismoniy va yuridik shaxslar | Elektron | Bepul | Subsidiya |

”.

28. 073-bobda:

nomidagi “O‘rmon xo‘jaligi” degan so‘zlar “O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

760 va 761-pozitsiyalarning “Davlat xizmatini ko‘rsatuvchi vakolatli organning nomi” ustunidagi “O‘rmon xo‘jaligi” degan so‘zlar “O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

29. 074-bob quyidagi mazmundagi 773[12]-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 773[12]. | 07423 | Tadbirkorlik subyektlarining tog‘li va cho‘l hududlarda ziplayn xizmatlari va kanatli park (taypark) ekstremal turizm majmuasini tashkil qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish | O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi | Jismoniy va yuridik shaxslar | An’anaviy va elektron shaklda | Bepul | Subsidiya |

”.

30. 076-bobning 786-pozitsiyasining “Davlat xizmati ko‘rsatish shakli (an’anaviy va elektron)” ustunidagi “Elektron” degan so‘z “An’anaviy va elektron shaklda” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

31. 084-bobdan 859-pozitsiya chiqarib tashlansin.

32. 096-bobdan 881 – 884-pozitsiyalar chiqarib tashlansin.